



# Namangan viloyat statistika boshqarmasi


(dastlabki ma'lumotlar)

## 2019 yil yanvar-avgust oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4627,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,6 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida savdo xizmatlari (33,4 %), transport xizmatlari (19,1 %), moliyaviy xizmatlar (14,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi (6,2 %) ustunlikka ega.

## 2019 yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %





## Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

### 2019 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajm, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>4627,3</b>	<b>111,6</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	286,8	110,3
Moliyaviy xizmatlar	674,6	180,6
Transport xizmatlari	882,3	104,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	800,4	102,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	93,4	101,1
Savdo xizmatlari	1 547,7	102,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	143,0	102,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	174,6	103,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	91,3	107,4
Ijara xizmatlari	98,5	102,0
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	131,2	101,7
Shaxsiy xizmatlar	305,3	103,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	75,3	135,6
Boshqa xizmatlar	123,3	101,6



## Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Xizmatlar sohasida eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (180,6 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (135,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (110,3 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 859,7 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2019 yil yanvar-avgust oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 121,3 mlrd. so'mga ko'paydi.

### 2019 yil yanvar – avgust oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm





## Namangan viloyat statistika boshqarmasi

*(dastlabki ma'lumotlar)*

Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (223,7 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (111,9 mlrd. so'mga) hamda moliyaviy xizmatlar (303,7 mlrd. so'mga) xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**Ma'lumot uchun:** 2018 yilning mos davrida savdo xizmatlari – 276,1 mlrd. so'm, transport xizmatlari 33,5 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar - 118,1 mlrd. so'mga oshgan.






## Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

### 2019 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari yashash va ovqatlanish xizmatlari (101,1 %), boshqa xizmatlar (101,6 %), kompyuterlarni ta'mirlash xizmati (101,7 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining deyarli uchdan bir qismi savdo xizmatlari tashkil etdi. 2019 yil yanvar-avgust oylarida uning ulushi 35,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (20,4 %), moliyaviy xizmatlar (9,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (7,8 %) egallaydi.



# Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

## 2019 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi





## Namangan viloyat statistika boshqarmasi

*(dastlabki ma'lumotlar)*


Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozir kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashuvida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

### 2019 yil yanvar-avgust oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %

Transport xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (90,7 %) egallaydi.

Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 9,0 % ni tashkil qiladi.

Pochta va kuryerlik faoliyati bo'yicha transport xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.






## Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2019 yil yanvar-avgust oylarida uning ulushi 78,1 % ni tashkil etadi.

### 2019 yil yanvar-avgust oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 16,8 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,1 % ni egallaydi.





## Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

### 2019 yil yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish turlari bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni telekommunikasiya xizmati (96,4 %) egallaydi.

Nashriyotchilik xizmati umumiy hajmining 2,6 % ni tashkil qiladi.

Axborot sohasidagi xizmatlar umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,6 % ni tashkil etadi.

Kompyuter programmalarini ishlab chiqarish xizmati aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.

Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,1 % ni tashkil etadi.






## Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga investitsiyalarni ko'paytirish butun dunyoda raqamli o'zgarishni boshqaradi va ko'plab odamlar AKT xizmatlari, xususan, mobil aloqa va Internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

### 2019 yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



2019 yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 674,6 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 180,6 % ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (88,7 %) tashkil etadi.




## Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 93,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'atlari 101,1 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,0 % ga yetdi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibining taqqoslanishi, %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 80,1 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 19,9 % ga to'g'ri keladi.




## Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

### 2019 yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi aholi jon boshiga hajm, ming so'm

2019 yil yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1673,7 ming.so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar-avgust oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 283,4 ming.so'mga oshdi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

(69) 227-85-28